

**ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ.
РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ**
**TA'LIM VA TARBIYADA SINFDAN TASHQARI O'QISH
MASHG'ULOTLARINING AFZALLIKLARI
(BOSHLANG'ICH TA'LIM SINFLARI MISOLIDA)**

Ochilova Farangiz

Navoiy Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar hamda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini aqliy, ruhiy, jismoniy tarbiyasida sinfdan tashqari o'qishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, ta'lim - tarbiyada ota-ona va maktab hamkorligining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy- ma'rifiy islohotlar, zamonaviy ta'lim talablari, ota-ona va maktab hamkorligi, sinfdan tashqari o'qish, sharqona tarbiya, savodxonlikni rivojlantirish, sinfdan tashqari o'qishda kitobxonlikning o'rni.

O'zbekistonda barcha sohada bo'lganidek, ma'naviy-ma'rifiy sohada ham olib borilayotlar islohotlar mohiyati – inson qadrini ulug'lash, uning huquq va burchlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, keyingi yillarda “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g'oya asosida bu borada katta ishlar amalga oshirildi. Yuzlab zamonaviy maktablarning barpo etilishi, ilgari tajribamizda bo'lmagan Prezident maktablari, ijod maktablarining hayotimizga kirib kelishi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ining kengayishi hamda yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi-fikrimiz dalilidir.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning asosiy prinsiplarida belgilanganidek, “...ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanganligi”¹ yoshlarimizni zamonaviy ta'lim talablari asosida tarbiyalanishida muhim omildir.

Ma'lumki, har bir insonning shaxs sifatida ashakllanishida boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyos. Shunday ekan ularning ham jisman, ham ma'nan, ham aqlan tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bugun boshlang'ich sinf o'quvchilari juda faol- harakatchan, qiziquvchan, intiluvchan, izlanuvchan o'quvchilardan tarkib topgan.

O'qituvchi esa ularning bu imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash, tog'ri yo'naltirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishi lozim. Ayniqsa, o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini orttirish, o'z o'rnida o'qituvchiga ham katta ma'suliyat yuklaydi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalash.

Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari esa o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida qo'shimcha shug'ullanishiga zamin yaratadi va sinfdan tashqari vaqtda ham o'quvchini bilim olishga qiziqishi hamda ijodiy havaskorligini uyg'onishi uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Qo'shimcha o'qish mashg'ulotlari ularning mustaqil o'qish hamda mustaqil fikrlash kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlarning sinfdan tashqari shakli o'qituvchining pedagogik ijodiy tashabbusini namoyon qilishi uchun ham, o'quvchilarning xilma-xil idrokiy havaskorlik iste'dodini ko'rsatish uchun va eng muhimi ularni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Lekin, hozirgi XXI asr – sivilizatsiyalar davrida bolalarning har xil gadjet o'yinlarga, mobil qurilmaga bo'lgan xohishi sabab, ularning bilim olish, rivojlanish, fikrlash kabi jihatlari oqsab qolmoqda. Eng achinarlisi, ijtimoiy tarmoqlarga tobelik ularda psixologik agressiyani keltirib

¹ O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.23.09.2020. 4-modda.

chiqarmoqda. Bunday salbiy holatlarning kelib chiqishi - ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tiborsizligi va aksariyat holatlarda mas'uliyatni o'qituvchi zimmasiga yuklashida, deb hisoblaymiz. Zero qadimdan sharqona tarbiyada oila- asosiy tarbiya o'chog' sifatida ulug'langan va bu qarash bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Oila -maktab hamkorligi orqaligina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, yani ota-ona tomonidan farzandga inson hayotida bilimning, ustozning o'rni, savodsizlik esa- jamiyat illati ekanligi to'grisida nasihatlar qilishi, ertak va rivoyatlar aytib berishi yaxshi natijalar berishi tabiiy.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi-kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirishdir. Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi:

1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik saboqlari 1-sinfda haftada 1 marta saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti- harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish orqali bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona - Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi.

3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy - estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, erkaliklari, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so'ngrabolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o'qishga o'tadilar. Bunda asosan o'qituvchi o'quvchilarni

**ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ.
РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ**

maktab kutubxonasiga, 3-4 sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradi. Shuningdek, bolalar gazeta va jurnallari ham o'quvchilarga ertak, hikoyalar o'qishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari bola xotirasida mustahkam o'rnashadi. Kelajakda bu kabi mashg'ulotlar o'z samarasini beradi va bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Fanni yanada chuqurroq o'rganishda, boshqa fanlarni o'zlashtirishda: adabiyot, ona tili kabi boshqa fanlarni o'zlashtirishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, savodxonlikni rivojlantirish, tilni bilish va umumiy akademik muvaffaqiyatga sezilarli hissa qo'shadi. Sinfdan tashqari o'qishni targ'ib qilishda, bir qancha muammolar mavjud bo'lsa-da, sinfdan tashqari o'qishni rag'batlantirish bo'yicha doimiy harakatlar zarurligini ta'kidlaydi. To'siqlarni bartaraf etish va qo'llab-quvvatlovchi o'qish muhitini yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga darsdan tashqari o'qishning to'liq afzalliklaridan foydalanishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T. 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. T. 2020 y.
3. A.Avloniy. Tirkuy Guliston yoxud axloq. T.2013 y. ziyouz.com kutubxonasi.
4. Pedagogika nachalnogo obrazovaniya. Uchebnik dlya vuzov. Pod redaksiyey S.A.Kotovoy. T.2017 god.

WORDLY
KNOWLEDGE